



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

O'sarov Shirinboy
Abdug'aniyevich

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat
instituti akademik litseyi ilmiy xodimi

METODIK KOMPETENTLIK BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY O'SISHINING ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya: Maqolada innovatsion yondashuvdan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirishning metodik asoslari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda ta'limdagi innovatsion yondashuvning asosiy tamoyillari tahlil qilingan va bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan aniq ish usullari va shakllari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: metodik kompetensiya, metodologiya, innovatsion yondashuv, novatsiya, pedagogik ta'lim, kasbiy rivojlanish, ish usullari, shakllari, amaliy mashg'ulotlar, axborot texnologiyalari.

Методическая компетентность как основа профессионального роста будущего педагога

Аннотация: В статье рассматриваются методологические основы развития методической компетентности будущих учителей с использованием инновационного подхода. В исследовании анализируются основные принципы



инновационного подхода в образовании и предлагаются конкретные методы и формы работы, которые помогут развить методологическую компетентность будущих учителей.

Ключевые слова: методологическая компетентность, методика, инновационный подход, инновации, педагогическое образование, повышение квалификации, методы работы, формы, производственная практика, информационные технологии.

Methodological competence as a basis for the professional growth of a future teacher

Annotation: The article examines the methodological foundations for the development of methodological competence of future teachers using an innovative approach. The research analyzes the basic principles of the innovative approach in education and proposes specific methods and forms of work that will help develop the methodological competence of future teachers.

Key words: methodological competence, methodology, innovative approach, innovation, pedagogical education, professional development, work methods, forms, practical training, information technologies.

Kirish. Bugungi o'zgaruvchan ta'lim sharoitida o'qituvchilarning roli nafaqat bilim berish, balki talaba-o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam berishdir. Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchilar uchun mustahkam metodik malaka poydevoriga ega bo'lish – talaba-o'quvchilarni qiziqtirish va ularning ta'lim natijalarini oshirish uchun turli xil o'qitish usullari va vositalaridan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi juda muhimdir. Metodik kompetentsiya o'qituvchining kasbiy o'sishining hal qiluvchi jihatlaridan biridir.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'sishi uchun asos sifatida metodik kompetentsiyaning ahamiyatini o'rganishdir. Mavjud adabiyotlarni, soha olimlari fikrlarini va empirik dalillarni har tomonlama o'rganish



orqali ushbu tadqiqot metodik kompetentsiyaning asosiy tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish, o'qituvchilar va ularning talabalari uchun taqdim etayotgan afzalliklarini o'rganish va metodik kompetentsiyani rivojlantirish va oshirishning samarali strategiyalari haqida tushuncha berishdan iborat.

Mazkur maqolada keltirilgan xulosalar va tavsiyalar ta'lim dasturlarini bo'lajak o'qituvchilarning o'sishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun qimmatli ma'lumotlar bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ta'lim amaliyotini yaxshilashga, talabalarning bilimini oshirishga va umuman ta'lim natijalarini yaxshilashga hissa qo'shadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Metodik kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim pedagogning o'z shaxsiy manfaatlari uchun ham, jamiyat, davlat manfaatlari uchun olib boradigan faoliyatining asosiy sohalaridagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi bilimlar va amaliy faoliyat usullarini kompleks ravishda o'zlashtirishiga qaratilgan.

Bugungi kunda ilmiy-pedagogik hamjamiyatda kasbiy-pedagogik kompetentsiyaning mohiyati va tuzilishi borasida qizg'in muhokamalar olib borilmoqda. Xususan, V.A. Adolf, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, E.L. Pupysheva, G.S. Savolainen, L.V. Shkerina va boshqalar kasbiy pedagogik kompetentsiyada uning turli xil turlarini ajratib ko'rsatishadi: metodik, fan, psixologik-pedagogik, ijtimoiy-madaniy. Keltirilgan turlar orasida o'qituvchining metodik kompetentsiyasi alohida o'rin egallaydi, chunki u bir qator boshqa kompetensiyalarni o'zida mujassamlashtiradi, bundan tashqari, aynan uning darajasi ko'p jihatdan ta'lim sohasidagi mutaxassisning kasbiy mahorat darajasini belgilaydi.

“Metodik kompetensiya” tushunchasi pedagogika fani uchun yangilik emas. Ko'pgina tadqiqotlarda ushbu kontseptsianing turli talqinlarini uchratish mumkin. Masalan Tupysheva, Stefanova, Frolovlar shular jumlasidandir. N.L. Stefanova metodik kompetentsiyani matematika va fan o'qituvchisining metodik madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri deb hisoblaydi va uni metodik ta'lim va dunyoqarash bilan bog'laydi [7]. VA. Zemtsova, o'z navbatida, metodik kompetentsiyani shaxsning xususiyati sifatida belgilaydi [8]. Bundan tashqari, bir qator



tadqiqotchilarmetodik kompetentsiyaning alohida turlarini tavsiflagan. T.S. Polyakova tarixiy-metodik kompetentsiya tushunchasini fanga kiritadi. I.V. Drobysheva differentsial metodik kompetentsiya tushunchasining mohiyatini ochib beradi. T.B. Rudenko didaktik-metodik-kompetentsiya tushunchasini tahlil etadi.

Adolf, Astashova, Zemtsova, Shkerinava boshqalar fikricha bunday tajribaga ega bo'lgan o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalaydi va o'zini yaxshilaydi, uning metodik kompetentsiyasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarni rivojlantiradi[8; 9; 10]

Hozirgi paytda metodik kompetentlikka erishish uchun innovatsion yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Asosiy qism. Ta'lim dasturlari doimiy ravishda rivojlanib borar ekan, bo'lajak o'qituvchilar moslashuvchan, innovatsiyalar va o'zgarishlarga ochiq bo'lishlari lozim. Ular o'zlarining o'qitish usullarini kengaytirish va yangi tadqiqot va ilg'or tajribalardan xabardor bo'lish uchun doimiy ravishda kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini izlashlari talab etiladi. Kasbga sodiqlik o'qituvchining kasbiy o'sishi uchun zarur bo'lib, ularga doimiy ravishda takomillashtirish va o'quvchilariga sifatli ta'lim berish imkonini beradi.

I.P.Podlasyning fikriga ko'ra, ta'lim innovatsiyalari pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi, o'quv jarayonining o'zgarishi, pedagogik nazariyaning o'zgarishi, o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi, talaba faoliyatining yangilanishi, pedagogik texnologiyaning o'zgarishi, ta'lim mazmunining yangilanishi, o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi, ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi, ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi[4].

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Innovatsiyalar munosabat yoki



jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O‘z-o‘zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig‘ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig‘ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko‘rsatadigan o‘zaro ta‘sirini ifodalaydi.

Har qanday innovatsiyada “yangi”, “yangilik” tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, subyektiv, mahalliy va shartli g‘oyalar tarzida namoyon bo‘ladi [4].

A.I.Prigojin, B.V.Sazonov va V.S.Tolstoylar o‘z tadqiqotlarida yangilik kiritishning tizimli konsepsiyani asoslashga uringan. Bu o‘rinda mualliflar innovatsion jarayonlarning quyidagi ikki muhim bosqichini bir-biridan ajratib ko‘rsatishadi [1; 2; 3]:

1. Yangilik sifatida namoyon bo‘ladigan g‘oyalarni ishlab chiqish (m: korxona, tashkilot tomonidan muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqishning rejalashtirilishi).

2. Yangilik (muayyan mahsulot)ni keng ko‘lamda ishlab chiqish.

Oliy ta‘lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o‘ziga xos yondashuvlar kuzatiladi.

Gnostik-dinamik yondashuv (unga ko‘ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg‘or pedagogik (ta‘limiy) innovatsiyalar va ularni o‘rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko‘nikma, malakalarni izchil o‘zlashtiradilar, o‘z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo‘llash borasidagi tajribalarni o‘zlashtiradilar).

Individual faoliyatli yondashuv (bunda pedagoglar o‘zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan hola amaliyo faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo‘llashda muayyan izchillikka erishadilar).

Ko‘p subyektli (dialogik) yondashuv (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o‘zaro, xususan, ko‘p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta‘lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo‘llashga doir tavsiya hamda ko‘rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).



Insonparvarlik yondashuvi (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

Individual-ijodiy yondashuv (unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi).

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyatining ilmiylikni qo'llashga tayyorgarligi, pedagogik yangiliklarni qabul qilishi, novatorlik darajasi, kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi va ijodkorligi kabi xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida BKMni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

M.Jumaniyozovning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyat ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish, pedagogik tadqiqot metodlarini egallash, mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati, tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish, o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish, hamkasblar bilan hamkorlik, fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik, ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish kabi belgilar asosida namoyon bo'ladi [5].

Odatda pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi ikki xil kechadi:



1. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, innovatsion jarayonda pedagogik yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, ularni amaliyotga tatbiq etishda mavjud shart-sharoitlar, usul va yo'llariga ongli munosabat bildirilmaydi.

2. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, pedagogik yangiliklar innovatsion jarayonda ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsuli sifatida amaliyotga joriy etiladi.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi.

Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi.

Ta'lim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi.

Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko'ra ta'lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.



Hozirda ta'lim sifati va samaradorligini rivojlantirishda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining innovatsion yondashuv asosida metodik kompetentligini rivojlantirishda axborot va kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va malakalar tizimiga ega bo'lishi lozimligini taqozo etadi. Axborot texnologiyalarini bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga tatbiq etish borasidagi mavjud tajribalar tahlili, bu borada quyidagi qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi:

- innovatsion yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirish jarayoniga axborot texnologiyalarini qo'llashga, pedagogika oliy ta'lim muassasalari Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi pedagogik jamoalarining yetarli darajada tayyor emasligi;

- innovatsion yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonida amaliy mashqlarni virtual tarzda bajarishga imkon beruvchi elektron darsliklarning imkoniyatlari haqidagi bilimlarning ozligi, ularni qo'llash bo'yicha metodik ishlanmalarning ishlab chiqilmaganligi.

Innovatsiyalar turli ko'rinishga ega. Yangi g'oyalar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'lmagan tashabbuslar, ilg'or ish uslublari[4] innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi.

Metodik kompetentsiya bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'sishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. U o'qitish jarayonlarini samarali rejalashtirish, amalga oshirish va baholash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Kuchli metodik kompetentsiyaga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchilarining individual ehtiyojlarini qondira oladi, izchil dars rejalarini ishlab chiqadi, o'quvchilarning yutuqlarini to'g'ri baholaydi va rivojlanayotgan ta'lim amaliyotiga moslashadi. Bo'lajak o'qituvchilar o'z metodik kompetensiyasini doimiy ravishda rivojlantirib borish orqali ta'limning doimiy rivojlanib borayotgan sohalarida samarali faoliyat olib borishlari.



Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qitishning innovatsion usullari va zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarga nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ijodiy fikrlash qobiliyatini, moslashuvchanlik va uzluksiz rivojlanishga tayyorlikni oshirishga imkon beradi. Tadqiqotda asosiy e'tibor o'qituvchining kasbiy o'sishi va o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirish muhimligiga qaratildi. Shunday qilib, metodik kompetensiyani rivojlantirish o'qituvchilarga o'quv jarayonining vazifalarini samarali hal qilishga va doimiy o'zgaruvchan muhitga muvaffaqiyatli moslashishga imkon beradi. Bularning barchasi zamonaviy jamiyatda yuqori sifatli ta'lim va muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zaruriy shartdir.

Adabiyotlar.

1. Пригожин А. И. Законность как социальная ценность //Прикладная юридическая психология. – 2010. – №. 1. – С. 51-55.
2. Сазонов Б. В. Методы и проблемы определения направлений перспективных научных исследований //Выявление приоритетных научных направлений: междисциплинарный подход. 2016. – С. 16-28.
3. Толстой В. С. Гражданское информационное право. 2009.
4. Муслимов Н.А, Усмонбоева, М.Х, Сайфулов Д.М, Тўраев А.Б. Инновацион таълим технологиялари. – Тошкент: 2015. – 208 бет.
5. “Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича ўқув-услугий мажмуа. -Тошкент, 2016
6. Дилова Н.Г.Таълим муассасаларида инновацион таълим жараёнини ташкил этиш йўллари. Scientific progress .Volume 2 Issue 7, 2021.-775-781 б.
7. Стефанова Н.Л. Теоретические основы развития системы методической подготовки учителя математики в педагогическом вузе: автореф. дис. ... д-ра пед. наук // Н.Л. Стефанова. – СПб.,1996.
8. Земцова В.И. Теоретические основы методической подготовки учителя физики: автореф. дис. ...д-ра пед. наук // В.И. Земцова. – СПб., 1995. – 32 с.
9. Адольф В.А. Профессиональная компетентность современного учителя: монография //В.А. Адольф; Краснояр. гос. ун-т им. В.П. Астафьева. – Красноярск, 1998. – 310 с.



10. Асташова, Н.А. Аксиологическое образование современного учителя: методология, концепция, модели и технологии развития: автореф. дис. ... д-ра пед. наук / /Н.А. Асташова. – Брянск, 2001. –52 с.